



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

MILLIY KOMPANIYALAR RAQOBATBARDOSHLIGI
OMILLARI

Ikromov. E. I.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Jahon iqtisodiyotining shiddatli globallashuvi davrida integratsion jarayonlar yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki hozirgi zamonda jahon iqtisodiyotining integratsiyasi avvalo kapital, ishlab chiqarish, mehnat integratsiyasining uyg'unligida aks etadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi esa tashqi bozor va milliy iqtisodiyotning tizimli integratsiyasi bilan namoyon bo'lishi natijasida iqtisodiy o'sish jadallashadi, zamonaviy texnologiya va boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi tezlashadi. Bunday sharoitda mamlakatlar o'zaro savdo munosabatlarini rivojlantirish orqali tashqi savdoni tobora kengaytirish bilan bir qatorda turli tovar va xizmatlarning sifati, narxi yoki brendining bevosita ta'siri asosida kuchli raqobatga duch keladilar.*

Kalit so'zlar: *Eksport salohiyati, Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, iqtisodiy o'sish, tashqi bozor, milliy iqtisodiyot, zamonaviy texnologiya, boshqaruv mexanizmi.*

Mamlakatimizda ham tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadbirlarga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari ijrosini ta'minlash doirasida milliy iqtisodiyotni tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bir qator amalga oshirilishi zikr etilgan vazifalar belgilangan, jumladan:

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun **samarali raqobatbardosh muhitni** shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;
- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda **ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini** ta'minlash;
- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini **diversifikatsiya qilish**, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish.

Shu jihatdan olganda, milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlashda ichki raqobat muhitini zamonaviy talablarga mos qayta shakllantirish orqali ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash va modernizatsiya qilish hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishi bilan milliy iqtisodiyotga savdo, moliya, investitsiyalarni jalb qilishga intilishida ko'rinadi.

Iqtisodiyotdagi mavjud raqobat muhiti taraqqiyotning yordamchi "harakatga keltiruvchi kuch" sifatida modernizatsiyalash va texnik yangilanish jarayonlarini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jadallashtiradi. Raqobat sharoitida ishlab chiqarish munosabatlari subyektlari o'rtasida unumliroq texnologiya, ish joyi, yaxshi bozorni qo'lga kiritish, umuman, yuqori daromad olish imkoniyati uchun kurash olib boriladi.

Ma'lumki, bozorda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari foyda olish maqsadida ma'lum resurslarni (moddiy, mehnat, moliyaviy, nomoddiy) qayta ishlash orqali tayyor mahsulot yoki xizmatlar ko'rinishidagi yakuniy mahsulotlarni yaratib, ularni iste'molchilarga taklif etadilar. O'z-o'zidan ma'lumki, biror-bir turdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchilar soni ortib borar ekan, ular o'rtasida xaridorlar uchun kurash vujudga keladi, ya'ni raqobat muhiti shakllanadi.

Shuning uchun, mazkur magistrlik dissertatsiyasi doirasida ishlab chiqarish hamda eksport sohasida **“raqobabardoshdoshlik”** tushunchasining ilmiy tasnifini ochib berishni lozim deb hisoblaymiz.

Ushbu masalaga bag'ishlangan izlanishlarni o'rganish davomida tadqiqotchilarning ko'pchiligi o'z oldiiga qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqib, raqobatbardoshlikning ma'lum bir tasnifiy belgilarini tadqiq etganlar. Magistrlik dissertatsiyasida ham tarmoqda raqobat vaziyatini aniqroq tavsiflash, uning o'ziga xos tomonlarini ochib berish hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun samarali vositalarni asoslash maqsadida, uning to'liq tasnifiy tizimini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Har qanday korxona faoliyat yuritayotgan mahsulotlar bozorida raqobatning mavjudligi, uni muayyan raqobatbardoshlikni ta'minlashini talab qiladi, aks holda Shuning uchun ham, iqtisodiy faoliyatning biror-bir sohasida, uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, raqobatbardoshlik mohiyatini aniqlash zarurati muhim ahamiyat kasb etadi.

“Raqobat” tushunchasini ta'riflashga quyidagi yondashuvlar alohida diqqatga sazovordir.

1. Raqobat bu bozordagi qandaydir harakatdir. Bunday yondashuv asosida eng yaxshi natijalarga erishish uchun musobaqalashish g'oyasi yotadi.

2. Raqobat talab va taklifning qat'iy muvozanatlashuvini ta'minlovchi bozor mexanizmining elementidir. Bu yondashuv klassik iqtisodiyot nazariyasiga taalluqlidir.

3. Raqobat bahoni shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy mezonlardan biridir. Bunday yondashuv raqobatni bozorning ajralmas xususiyatlaridan biri sifatida qarashga asoslanadi.

Klassik iqtisodchilardan A.Smit tomonidan raqobatga bozordagi subyektlar o'rtasida mahsulotlarni sotish va sotib olishda qulay sharoitlar uchun halol kurash sifatida qaralgan bo'lsa, D. Rikardo tomonidan raqobat asosida bozorda bahoni tartibga solish g'oyasi rivojlantirilib, tabiiy baholarning markazlashmagan boshqaruv tamoyili bilan hamohanglikda bozordagi uzoq muddatli muvozanatni, pirovard natijada iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlashi ilmiy asoslab berilgan.

M.Porterning fikricha raqobat tushunchasi mohiyatini ochib berish har qanday





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tarmoqning tarkibiy tuzilishi va undagi o'zgarish jarayonlarini chuqur bilishga asoslanmog'i lozim. U raqobat muhitini belgilovchi kuchlarni **besh guruhga** ajratadi:

- 1) yangi raqobatchilarning paydo bo'lish tahdidi;
- 2) mahsulot o'rnini bosuvchi yangi mahsulotlarning paydo bo'lish tahdidi;
- 3) mahsulot va xizmatlarni yetkazib beruvchilarning nimaga qodirligi;
- 4) iste'molchilarning munosabati va imkoniyatlari;
- 5) mavjud raqobatchilarning o'zaro musobaqalashuvi.

K. R. Makconnell va S. L. Bryu "Raqobat bu bozorda ko'p sonli mustaqil sotuvchilar va xaridorlarning mavjudligi bo'lib, sotuvchilar va xaridorlar uchun bozorga erkin kirish va uni tark etish imkoniyatidir" deb ta'rif beradilar.

R.A. Fatxutdinov raqobatbardoshlikka – obyektning bozordagi o'xshash obyektlarga nisbatan raqobatga dosh bera olish qobiliyati sifatida ta'rif berib, mahsulot yoki xizmatlar muayyan bozorda raqobatlasha oladigan yoki olmaydigan bo'lishi mumkin. Shuningdek, raqobatbardoshlik mahsulot yoki xizmatlarni boshqalardan iste'molchilarning talablarini qondirish xususiyatlari, xarid va foydalanish xarajatlari bo'yicha farqini aniqlovchi iste'mol xususiyatlari majmui sifatida ham ta'riflanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, korxonaning **ichki yoki tashqi bozor segmentida raqobatlashish imkoniyati** uning mahsuloti raqobatbardoshligiga va korxona faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga bog'liqdir.

Iqtisodiy adabiyotlardan ma'lumki, mahsulot raqobatbardoshligi – mahsulotning texnik-iqtisodiy va foydalanish ko'rsatkichlarining bozordagi o'xshash mahsulotlar bilan raqobatlasha olish darajasini anglatib, bozor talabi yoki boshqa mahsulot xususiyatlariga nisbatan uning ishlab chiqarish, tijorat, tashkiliy va iqtisodiy ko'rsatkichlari yig'indisining kompleks bahosini o'zida mujassamlashtiruvchi nisbiy tavsifdir.

Raqobat mahsulot sifatini oshirishga, xarajatlarni pasaytirishga hamda mehnat unumdorligini oshirishga undovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Taklif talabdan oshgan vaziyatda raqobat – korxonalar emas, balki ularning mahsulotlari o'rtasida vujudga keladi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, **korxonalar mahsuloti raqobatbardoshligi** majmuaviy tushuncha bo'lib, u texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy omillar guruhidan iboratdir.

Texnik-texnologik omillarga xavfsizlik, texnik parametrlar o'zgarishlari chegaralarini belgilovchi standartlar, me'yorlar, qoidalar kiradi.

Tashkiliy-iqtisodiy omillar esa mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, bahosi, xodimlarni o'qitish, sug'urtalash, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy omillar – jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy va ekologik, reklama va targ'ibotni tashkil etish talablarining o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

Shuningdek korxona raqobatbardoshligi to'g'risida yuritilgan mulohazalar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: raqobatbardoshlik tushunchasi mazkur bozorda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mavjud bo'lgan o'xshash obyektlarga nisbatan muayyan ehtiyojni qondirish darajasi bilan tavsiflanadigan obyekt xususiyatini; mazkur bozordagi o'xshash obyektlarga nisbatan raqobatga dosh berish qobiliyatini; o'z mahsulotlari bilan kishilar ehtiyojini qondirish darajasi va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi bo'yicha korxona rivojlanishining boshqalardan farqini ifodalaydi.

Korxona tashqi bozordagi doimiy o'zgarishlarga moslashuvchan iqtisodiy salohiyatga ega bo'lishi lozim va u eng avvalo xorijiy iste'molchilarning o'zgaruvchan talablarini qondirishga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarishga qaratiladi.

"Eksport salohiyati" eng avvalo **korxonaning tashqi bozorda raqobatbardoshligini** anglatadi. Ya'ni eksport salohiyati bir tomondan korxonaning raqobat salohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Raqobat salohiyati – korxonaning moddiy va nomoddiy resurslardan foydalangan holda raqobat ustunliklarini shakllantirib, bozorda samarali raqobat kurashini olib borishini ta'minlay oladigan ichki va tashqi raqobat imkoniyatlarini ifodalaydi. Shunga asosan korxonaning eksport salohiyatini raqobat salohiyatidan foydalanish darajasi sifatida e'tirof etish mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, sanoat korxonasi va ularning mahsulotlari raqobat salohiyati asosida shakllanib, tashqi bozorda raqobat ustunliklari hisobiga ularning joriy darajasi eng ko'pi bilan salohiyat darajasigacha borib yetadi.

Agarda muayyan raqobat muhitida salohiyatdan to'liq foydalangan holda korxona yoki uning mahsulotlari raqobatbardoshligi talab darajasida bo'lmasa, eng avvalo raqobat salohiyatini oshirish va uni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Eksportchi korxonalar raqobatbardoshligining ko'zlangan darajasiga mahsulotning sifati va nomenklaturasini oshirishni ta'minlay oladigan boshqaruv tizimi orqali erishish mumkin. Unda eng maqbul strategiyani tanlash ko'p jihatdan mahsulotlar bozorining ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatbardoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqali sifatli va raqobatbardosh mahsulot tayyorlashni ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Bu borada mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda va yaqin kelajak uchun istiqbolli rejalar belgilab olingan. Hozirgi kunda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar davom etmoqda. Eksportni yanada rag'batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish lozim.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Asosiy maqsad – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni **“O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” brendi** ostida olib chiqishdan iborat.

Bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda iqtisodiy islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi. Shularni inobatga olib, 2017-yil - fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli farmon imzolandi.

Mazkur farmon beshta yo‘nalishdan iborat bo‘lib, “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda yuqoridagi masalaga alohida urg‘u berilgan va yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish; iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish yaqin kelajakdagi ustuvor vazifalar qilib belgilab olingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib aytadigan bo‘lsak, sanoat korxonalarida tayyorlanadigan mahsulotlarimizning sifati va raqobatbardoshligi mamlakatimiz iqtisodiyotining buguni va ertasi uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O'RNINI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
14. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
15. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
16. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
17. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
18. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
21. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
22. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
23. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O'RNINI. *Gospodarka i Innowacje.*, 53, 205-213.
24. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

25. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.
26. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.
27. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.
28. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.
29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.
30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.
31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 162-166.
33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.

